

YEVROPA OLIMLARINING TIBBIYOT SOHASIGA QOS'SHGAN HISSASI.

Olimov Fayoz Xakimovich o'g'li

Oydin shifo xususiy klinikasi, Kardiolog

Annatatsiya

Mazkur maqola, Yevropa olimlarining tibbiyot sohasiga qos'shgan hissasi va ularning har birining tajribasi haqida qisqacha talqinda ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Me'da-ichak yo'li kasalliklari, nerv sistemasi, profilaktika chora-tadbirlari kompleksi.

Maksim Petrovich Konchalovskiy (1875—1942). Asosiy asarlari hazm organlari patologiyasi, revmatizm va gematologiyaga bag'ishlangan. Kasallikni organizmning muhit sharoitlariga mosla- shuvchanligining buzilishidir, deb bilar edi. Trombopeniyalarda ko'riladigan jgut simptomini birinchi bo'lib bayon qildi (1910- yilda).

Nikolay Dmitriyevich Strajesko (1876—1952). Qon aylanish patologiyasi masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlari, stenokardiya va miokard infarkti, revmatizm, sepsis, me'da-ichak yo'li kasalliklari to'g'risidagi ta'limoti, ayniqsa, mashhurdir. U qorin bo'shlig'i organlari kasalliklarining fizik diagnostikasi prinsiplarini ishlab chiqdi, kolitlar, yara kasalligi, buyrak va o't pufagi kasalliklarining diagnostikasi bilan terapiyasini mukammallashtirdi. Qon aylanishi yetishmovchiligining yangi klassifikatsiyasini V.X. Vasilenko bilan birgalikda ishlab chiqdi.

Mixail Vasilyevich Chernorutskiy (1884—1957) — ichki organlar kasalliklarining patogenezi va klinikasida odam konstitu- tsional xususiyatlarining rolini o'rganishga ko'p vaqtini bag'ishlagan. U revmatizm muammosiga, kasallikning avj olishi hamda taxminida nerv sistemasi, irsiy omillar rolini o'rganishga katta ahamiyat berdi: allergiya muammosini muvaffaqiyat bilan ishlab chiqdi, revmatizm, o'tkir nefritlar, seroz plevritlar patogenizida allergiyaning ahamiyatini o'rgandi.

Georgiy Fedorovich Lang (1875—1948). Uning asosiy ishlari yurak-qon tomirlar patologiyasi masalalariga bag'ishlanadi. Ichki kasalliklar to'g'risidagi ta'limotni rivojlantirishda G. F. Lang nerv sistemasining funksional o'zgarishlariga katta ahamiyat berdi va kasalliklarning kelib chiqishini I.P. Pavlovning fiziologik ta'limoti nuqtayi nazaridan talqin qildi. U gipertoniya kasalligini kelib chiqi- shida bosh miya po'stlog'idagi funksional o'zgarishlar (xususan, uning uzoq vaqt haddan tashqari zo'riqishi) yetakchi ahamiyatga ega deb ko'rsatib berdi. G.F. Lang yurak-qon tomirlar kasallik- larining zamonaviy klassifikatsiyasini ishlab chiqdi. U gematologiyada funksional yo'nalishni yaratdi, shu yo'nalish nuqtayi nazaridan olganda, bir qancha qon kasalliklari, qonning parchalanishi va hosil bo'lish jarayonlari nerv regulatsiyasining buzilishiga bog'liqdir.

Aleksandr Leonidovich Myasnikov (1899—1965)—ichki tibbiyotning eng muhim muammolariga: jigar patologiyasi, giper- toniya kasalligiga ko‘p e‘tibor bergan olimdir. A.L. Myasnikovning gipertoniya kasalligi mohiyat e‘tibori bilan po‘stloq dinamikasi va visseral o‘zaro munosabatlarining murakkab tarzda buzilishining ifodasidir, degan konsepsiyasi hozirgi zamonning tegishli davolash profilaktika chora-tadbirlari kompleksi asosida yotadi. A.L. Myasnikov ateroskleroz muammosini o‘rganishga katta hissa qo‘shdi, shu kasallikda xolesterin almashinuvining buzilishi to‘g‘risidagi masalani o‘z hamkorlari bilan birgalikda ishlab chiqdi. U atero- sklerozning koronar yetishmovchilik va miokard infarkti singari asoratlariga alohida e‘tibor berdi.

Vladimir Nikitich Vinogradov (1882—1964). U tekshirish uslublarini mukammallashtirish, profilaktika prinsiplari va faol terapiyani tinmay hayotga tatbiq etib keldi. Ilk bor mashhur kasallik tarixi sxemasini yaratdi. V.N. Vinogradov beqiyos tashxischi edi. U dastlab o‘z klinikasida qonning minutlik hajmini aniqlash, bronxoskopiya, gastroskopiya, yurakni kateterlash, radioaktiv izatoplar usuli va boshqa diagnostik uslublarni birinchi bo‘lib qo‘lladi. V.N. Vinogradov dori-darmonlar bilan faol davo qilish usullarining haqiqiy tashabbuskori edi. U rahbarlik qilayotgan shifoxonada penitsillin surunkasiga davom etadigan septik endokardit va krupoz (zotiljam) pnevmoniyada, kampalon va B12 vitamini xavfli anemiya (Addison-Birmer kasalligi)da, dikumarin — miokard infarktida, AKTG — bronxial astmada, streptomitsin, ftivazid va PASK sil plevritlarida birinchi bor ishlatildi.

V.N. Vinogradov so‘nggi yillarda yurak-qon tomirlar sistemasi patologiyasiga, muammosiga — gipertoniya kasalligi, miokard infarkti, ateroskleroz, revmatizm tizimiga katta e‘tibor berdi. Shu munosabat bilan V.N. Vinogradov o‘zi boshqarayotgan klinikada fiziologik laboratoriya tashkil etdi.

Sotsialistik tuzumdagi tibbiyot. Bu davrdagi ichki kasallik- larning rivojlanishi sohaning yetuk bilimdonlari — V.P. O obrazsov va N.D. Strajesko (Kiyev), M.P.Konchalovskiy va D.D. Pletnev (Moskva), G.F. Lang (Leningrad) nomlari bilan bog‘liq. Taniqli olimlar tibbiyotning ichki kasalliklar sohasida ish olib borishdi: stenokardiya va miokard infarkti, yurakning revmatik yallig‘lanishi va qon aylanishidagi yetishmovchilik, yara kasalligi va qandli diabet hamda qon kasalliklari shular jumlasidandir. Yurak-tomir kasalliklari: nafas organlari, ovqat hazm qilish, buyrak, qon sistemasi kasalliklarini o‘rganishda V.X. Vasilenko, V.N. Vinogradov, I. A. Kassirskiy, A.L. Myasnikov, Y.M. Tareyevning xizmatlari juda katta. Kardiologiyaga oid muammolarni o‘rganish, ayniqsa, muhim. TFAga qarashli Butunittifoq kardiologiya markazi bu sohadagi yagona ilmiy markaz hisoblanadi. Kardioxirurgiyaning rivoj topishi A.N. Bakulev, A.P. Kupriyanov, B.V. Petrovskiy, A.A. Vishnevskiy, E.N. Meshalkin va boshqalarning nomlari bilan bog‘liq. N.N. Petrov va P.A. Gersen onkologiyani rivojlantirishga katta hissa qo‘shishgan.

Mustaqil O‘zbekistonda «Ichki kasalliklar» fanining rivojlanishi va taraqqiyoti. Odamlarda uchraydigan kasalliklar, ularni davolash va oldini olishni o‘rganadigan klinik fanlar asosiy

davolash uslubiga ko'ra, terapiya va jarrohlikka bo'linadi. Tibbiyotning bu qismlari ham o'z navbatida, ayrim a'zo, sistemalar kasalliklarini o'rganish, davolashi, ba'zi kasalliklarning ko'p uchrashi, o'ziga xosligi hamda qo'llaniladigan asosiy tekshirish va davolash uslubiga ko'ra, yana bir necha sohalarni o'z ichiga oladi. Chunonchi, terapiya, kardiologiya, revmatologiya, nevrologiya, gastroenterologiya, gema- tologiya, endokrinologiya, geriatriya, ftiziatriya, nevropatologiya, psixiatriya, kurortologiya, fizioterapiya, davo fizkulturasi, tibbiyot radiologiyasi va rentgenologiya qismlariga bo'linib rivojlandi.

O'zbekistonda ichki kasalliklarni o'rganishda tibbiyotga oid tadqi- qotlar ko'lami kengaydi. Ateroskleroz, gipertoniya, miokard infarkti, stenokardiya, revmatizm, yurakning ishemik kasalligi, yurak porogi kabi yurak-tomir kasalliklari, ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari (gastrit, kolit, enterit, enterokolit va boshq.), gepatit, chillashir, pellagra va boshqa kasalliklarning kelib chiqish sabablari, tarqalishi, davosi va oldini olish masalalari chuqur o'rganildi. Punksion biopsiya, laparoskopiya, radiogematografiya, ichki a'zolar kasalliklarini maxsus apparat yordamida aniqlash tufayli ichki kasalliklarning yangi klassifikatsiyasi tuzildi. To'qimalarda parazitlik qiladigan lyambliyalarni topish va u keltirib chiqaradigan kasallik — lyambliozni kompleks davolash usuli ishlab chiqildi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Борисов Л.Б., Смирнова А.М., Фрейдлин И.С., Ширококов В.П. и др. Медицинская микробиология, вирусология, иммунология. Учебник. «Медицина»- Москва, 1994.
2. Бойченко М.Н. Генетика бактерий. - Учебное пособие. - М. ММА, 1996.
3. Волина Е.Г., Саруханова Л.Е. Основы общей микро-биологии, иммунологии и вирусологии. - М.: «Медицина», 2004.
4. Воробьев А.А., Быков А.С. Атлас по медицинской микробиологии, вирусологии и иммунологии,- М. МИА, 2003.
5. Воробьев А.А. Медицинская микробиология, вирусология и иммунология. Учебник. М. МИА, 2004.